

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARI ORASIDA AGRESSIVLIKNI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK VAZIFALARI

Hamidova Nigora Nabijonovna

Farg'ona viloyati Toshloq tumani 21-maktab psixologi

ANNOTATSIYA *Maqolada bolalardagi agressivlilik muommosi va uning dolzarbligi, xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan agressiv xulq-atvorning o'rganilishi, ilm-fanga kiritgan yangiliklari va tadqiqot natijalari bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *kichik maktab yoshi, agressivlilik, agressiv xulq-atvor, xorijiy va mahalliy olimlar, psixodiagnostika, psixoprofilaktika, psixokorreksiya, frustratsiya, ijtimoiylashuv, nizo.*

KIRISH

Hozirgi paytda agressivlilik muommosi psixologiyadagi eng dolzarb mavzulardan biriga aylangan. Insondagi agressivlik holati har qanday sabablarga bog'liq bo'lib, bu holatning psixodiagnostikasi, psixoprofilaktikasi bo'yicha xorijda bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan va ulardan amaliyotchi psixologlarimiz foydalanib kelmoqda. Shunday bo'lsada maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari va maktab psixologlari so'ngi paytlarda bolalarda agressivlilik juda ko'payib ketganini ta'kidlab kelishadi. Bolalarda agressiv harakatlar ayniqsa, ularning o'tish davrida kuzatiladi. Ya'ni har qanday qiyin vaziyatda bolaning yosh krizisi muommolarga to'la bo'ladi. Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tarkibida kichik maktab yoshi o'quvchilarining ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish, shaxslararo munosabatlarini yaxshilash, axloqiy ko'nikmalar shakllantirilishining psixologik mexanizmlarini takomillashtirish muhim masalalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Psixologiya va bir qator sohalarda bolalardagi agressiv xulq-atvor va agressiyani tadqiq qilgan tadqiqotchilar A.Bass, L.Berkovitz, E. Fromm, A.Bandura va R.Uolters, R.Beron, D.Richardson, L.M.Semenyuk, G.E.Breslav, I.A.Furmanov, K.S.Shalaginova, Yu.S.Bashkatova, I.F.Nurmuxametova, E.L.Golenisheva, E.I.Berejkova, S.A.Travina, T.P.Smironova va O'zbekistonlik olimlardan E.G'.G'oziev, N.G'.Kamilova, G.Q.To'laganova, F.F.Rasulova kabi tadqiqotchilarning bu boradagi ilmiy qarashlari alohida etiborni tortadi. Ish jarayonida ilmiy adabiyotlarni fanlararo nazariy tahlil qilish, eksperimental ma'lumotlarni statistik qayta ishlash usullari kabi ilmiy tadqiqot usullari qo'llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Agar biz g'arb kontseptsiyalarining xilma-xilligini tahlil qiladigan bo'lsak, ulardan eng muhimlaridan uchtasini ajratishimiz mumkin. Birinchisiga, agressivlik shaxsning tug'ma, instinktiv mulki sifatida qaraladigan nazariyalar kiradi (bunga psixoanalitik nazariyalar kiradi). Ikkinchisi, agressiyani frustratsiyaga bo'lgan xatti-harakat sifatida tasvirlaydi. Uchinchisi, agressivlikni o'rganish natijasida shakllanadigan xulq-atvorning xususiyati deb hisoblaydigan tushunchalardan iborat (xulq -atvor nazariyalari). L.Berkovitz "frustratsiya-agressiya" kontseptual sxemasiga uchta muhim o'zgartirish kiritadi: a) frustratsiya agressiv harakatlarda amalga oshmaydi, lekin unga tayyorgarlikni rag'batlantiradi; b) hattoki tayyor holda bo'lsa ham, agressiya tegishli shartlarsiz sodir bo'lmaydi; v) frustratsion vaziyatlardan agressiv harakatlar yordamida chiqib ketish individda bunday harakatlarning odatlanishiga tarbiyalaydi. Agressiv reaksiyalarning namoyon bo'lish kuchida ham gender farqlari mavjud. O'g'il bolalar jismoniy tajovuz reaksiyalarining ustunligi bilan ajralib turadi, yoshi kattaroq qizlar esa tajovuzni ifodalashning bilvosita usullariga ko'proq murojaat qilishadi: og'zaki, bilvosita va negativizm. Ehtimol, bu o'g'il bolalarning tajovuzkorligi "tashqi tomonga", qizlar esa "ichkariga" qaratilganligi bilan bog'liqdir. I.A.Furmanov bolalar agressivligini tushuntirishning turli uslubiy va kontseptual yondashuvlari, bolaning xatti-harakatlarida tajovuzning paydo bo'lishini rag'batlantiruvchi yoki

qo'zg'atuvchi psixologik va ijtimoiy omillar, uni psixodiagnostikalashning bevosita va yordamchi usullari, shuningdek, psixo-ijtimoiy korrektsiya yo'nalishlarini aniq ochib bergan. Uning ta'kidlashicha, bolalar o'rtasidagi konfliktlar narsalar va o'yinchoqlarni egallash bilan bog'liq bu chegaralar kesishganda paydo bo'ladi, ya'ni bir nechta bolalar boshqa bolalarning o'yinchoqlarini olish orqali o'z chegaralarini kengaytirishga harakat qiladi. Buni 2, 4 va 7 yoshli uchta o'g'il bolani uzoq muddatli kuzatish natijalari tasdiqlaydi. Agressiv xulq-atvor bilan bog'liq eng ko'p nizolar kichik, katta va o'rta bola o'rtasida, kichiklar va katta yoshlilar o'rtasida esa qarama -qarshilik minimal bo'lganligi kuzatildi. Nizolar faqat ba'zi o'yinchoqlarga egalik qilish uchun paydo bo'lganiga e'tibor qaratildi. Ajablanarlisi shundaki, o'yinchoqlar borligida ular o'rtasida hech qanday ziddiyat yo'q edi. E. Fromm agressiyani keng ma'noda ta'kidlab o'tadi – bunda faqatgina odam va hayvonatlarga emas, balki jonsiz predmetlarga ham ziyon keltirishni agressiya dep hisoblagan. E.L. Golenisheva 2005-yili kandidatlik dissertatsiya ishida boshlang'ich maktab o'quvchilarining agressivligi muammosini mikro-ijtimoiy omillar (ota-onalar, o'qituvchilar, tengdoshlar) aloqalarini o'rganish nuqtai nazaridan ko'rib chiqqan. U o'z tadqiqoti davomida kichik maktab yoshi bolalarining individual psixologik xususiyatlarini o'rgangan va natijada agressiv boshlang'ich maktab o'quvchilarining asosiy shaxsiy xususiyatlari: past ijtimoiy normativlik, zaif muloqot faolligi, mustaqillik, beparvolik, qo'rqqoqlik, vaziyat tashvishi, o'zini-o'zi baholashning yuqoriligini aniqlagan. Agressivlikda gender farqlari borligi ham aniqlangan. Agressiv o'g'il bolalarga past darajali verbal intellekt, yuqori darajada vaziyattan tashvishlanishi, ishonchsiz va beparvoligi bilan ajralib turadi. Agressiv qizlar uchun qattiqqo'llik va ishonchsizlik xos. K.S. Shalaginova 2003-2007 yillar davomidagi tadqiqot ishida "Agressivlik" tushunchasini ilimiy asoslab beradi va u boshlang'ich maktab yoshidagi agressivlik namoyon bo'lishining to'rt darajasiga xos xususiyatni keltiradi: nol darajada - g'ayritabiiy agressivlik yo'qolgan, birinchi darajada – agressivlik asosan hissiyirodaviy sohada, ikkinchi darajada – intellektual soha hukmronlik qiladigan hissiyirodaviy sohada, uchinchi daraja –

hissiy-irodaviy, intellektual, faoliyat soha hukmronlik qiladigan darajalarga ajratgan. Tadqiqot natijasida agressiv boshlang'ich maktab o'quvchilarini tizimli psixologik qo'llab -quvvatlash modelini ishlab chiqqan, bu o'zaro bog'liq uchta komponent mavjudligini nazarda tutadi:

- 1) nazariy, shu jumladan tadqiqot ishiga tegishli kategoriya apparati ta'rifi;
- 2) amalga oshirishni o'z ichiga olgan empirik 1 (maktab) toifali apparatni aniqlash, diagnostika va tuzatishni amalga oshirishda tizimli yondashuv sharoitida ishlab chiqilgan agressiv boshlang'ich maktab o'quvchilariga tizimli psixologik yordam;
- 3) empirik 2 komponentida agressiv boshlang'ich maktab o'quvchilariga tizimli psixologik yordam ko'rsatishni amalga oshirishda bo'lajak ta'lim psixologlarini kasbiy tayyorlash uchun o'quv-uslubiy asosni (ixtiyoriy kurs misolida) ishlab chiqish vazifasini qo'yadi. F.F. Rasulova o'z tadqiqotida kichik, o'rta, katta o'smirlarga xos agressiv mayllarning tabaqalashtirilgan ichki evolyutsiyasi hamda aggressiya shakllari o'rtasidagi bog'liqni jinsga ko'ra tafovutlanishining xulq-atvor va ishtimoiy munosabatlarini shartlovchi psixologik omillarini, ota-ona bilan bola munosabatlarida qabul qilish va kooperatsiya tarbiya usubi aggressiyaning pasayishini ta'minlovchi psixologik omillar ekanligini, agressiv o'smirlar xulq-atvorini psixoprofilaktika qilish va psixokorreksiyalash maqsadida "Xulq-atvorni modifikatsiyalash treningi" psixologik trening dasturini, aggressiyaga moyil o'smirlar xulq-atvorini psixoprofilaktika qilish va psixokorreksiyalash maqsadida ota-onalar, pedagoglar va psixologlar hamkorlikda samarali ish olib borishining algoritmini ishlab chiqqan. Uning tadqiqoti natijasida mahalliy sharoitda o'smirlar agressiv xulq-atvorining yosh, jins va individual psixologik xususiyatlarini o'rganishga doir psixodiagnostik metodikalarni tizimlashtirishga va o'smirlardagi agressiv xulq-atvorni korrektsiya qilish imlonini beruvchi ijtimoiy trening dasturi ilmiy asoslangan, amaliyotda sinovdan o'tkazilgan hamda xalq ta'limi muassasalari amaliyotiga tatbiq etilishi tavsiya etilgan.

XULOSA

G'azablanish, qo'rqish va shu kabi boshqa emotsiyalar insonni o'rab turgan sharoitga moslashish vazifasini bajaradi. G'azablanish odamlarda ham hayvonlar kabi to'siqlarni yo'qotishga, maqsadiga erishishiga, o'zini himoya qilishiga yordam beradi. Shuning uchun har qanday agressiyani ko'rsatish qonun buzarlilik hisoblanmaydi. Bolalar hayotida agressiv xulq-atvor tez-tez uchrab turadi. Ulg'ayib kelayotgan bolalarda psixologik holatlar kechishiga vaqtida e'tibor berilmasa sa'lbiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin. Yuqorida keltirilgan tadqiqot ishlaridan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkin kichik maktab yoshi davridagi agressivlik va agressiv xulq-atvor mamlakatimizda ya'ni Qoraqalpog'iston Respublikasida o'rganilishi kerak bo'lgan sohalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Башкатова.Ю.А. Развитие коммуникативных универсальных учебных действий у младших школьников с разным уровнем агрессивности. Автореф.

дисс. кандидата психологических наук: 19.00.07/ Ярославль-2014. С-6

2. Бютнер К. Жить с агрессивными детьми.– М., 1991.– С. 56

3. Фурманов.И.А. “Детская агрессивность: Психодиагностика и коррекция”- Минск: Ильин В.П., 1996. –С.12

4. Голенищева Е.Л. Социально - психологические факторы агрессивности младших школьников. Автореф. дисс.. кандидата психологических наук: 19.00.13/ Санкт- Петербург-2005. С-5

5. Крейхи Б. Социальная психология агрессии. – М.: Питер, 2003. – С.56.